

# ILM-FAN YANGILIKLARI

ILMIY AMALIY MASOFAVIY KONFRENSIYA

2026 ▶▶▶



zenodo

R<sup>G</sup> ResearchGate



- 1.TIBBIYOT FANLARI
- 2.PEDAGOGIKA FANLARI
- 3.TARIX FANLARI
- 4.FILOLOGIYA FANLARI
- 5.GEOGRAFIYA FANLARI
- 6.GUMANITAR FANLARI

- 7.ANIQ FANLAR
- 8.PSIXOLOGIYA FANLARI
- 9.TEXNIKA FANLARI
- 10.QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI
11. IJTIMOY FANLARI
- 12.BIZNEZ VA MENEJMENT



+998978374147



[worldlyjournals.com/index.php/ztdvq](http://worldlyjournals.com/index.php/ztdvq)

## MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA BOG'LANGAN NUTQNING ONTOGENETIK RIVOJLANISHI

**Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich**

*Oriental universiteti*

*Uzluksiz ta'lim kafedrası dotsenti, PhD.*

Ma'lumki, bog'langan nutqda bolalarning atrofdagilar bilan voqea va hodisalar ta'siri natijasida o'zaro munosabati, aloqasi ifodalanadi. Bu ifoda bir yoki bir necha jumalalarda o'z aksini topishi mumkin. Bog'langan nutqning shakllanishida bolaning tevarak-atrof bilan munosabati, muomala shakli katta rol o'ynaydi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning og'zaki nutqqa doir, malaka va ko'nikmalari mavjud bo'lganligini hisobga olib, ularda bog'langan nutqni shakllantirishda, avvalo, tevarak-atrofnı kuzatishda nimalarga e'tibor berishimiz kerakligini aniqlab olishimiz zarur. Bular, avvalo, ona-Vatan haqida dastlabki tasavvurlarnı shakllantirishdan boshlanadi. Bunda, birinchi navbatda, bolalar so'z boyligini kengaytirishda Respublikamiz tabiati, kasb-hunarga oid, qurilish va qishloq xo'jaligida foydalaniladigan mashinalar, narsalarning o'ziga xos belgilari va ranglari, mehnatga munosabatni ifodalovchi tushunchalar, nom va so'zlar bilan boyitish zarur.

Shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish: ona tilidagi antonim, sinonim, omonim so'zlarnı tushunish va to'g'ri qo'llashga doir tushunchalar, so'zlar bilan boyitishga erishish lozim.

Bolalarnı narsalarning nomlarini to'g'ri aytishga, ularning o'xshash va farqli tomonlarini tushunish, shakli, rangi, sifati, xossalarini, jinsi va turiga oid yo'naltiruvchi lug'atini faollashtirish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, nutq madaniyatini shakllantirish, dialogik va monologik nutqni takomillashtirish va nihoyat savod o'rgatishga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

So'zlashish – monologik (bog'langan) nutqning eng muhim metodi. So'zlashuv (dialogik) nutqni shakllantirish, bog'langan nutqni tarkib toptirishda eng muhim talablardan sanaladi.

So'zlashuv nutqi bolaning lug'at boyligiga bog'liq bo'ladi. Bunda bola suhbatdoshini eshita olish, tushunish, savollarga to'g'ri javob bera olish bilan birga, so'zlashuv madaniyatini egallab borishni ham taqozo etadi.

Bolalar bilan suhbat jarayonida ko'proq yo'naltiruvchi savollar beriladi. Masalan, tabiatga sayohat paytida tarbiyachi tomonidan "Hozir yilning qaysi fasli?", "Bahorda tabiatda qanday o'zgarishlar yuz beradi?", "Bahorda qanday qushlar uchib keladi?" kabi savollarning berilishi bolalarning dialogik nutqning rivojlanishiga yordam beradi.

Bog'langan nutqda eng muhim metod bu dialogik nutq, ya'ni bolalar bilan so'zlashishdir. So'zlashish og'zaki nutqning eng oddiy shakli bo'lib, unda bola o'zini tutishi, ko'z qarashi, xatti-harakati, ovozining past balandligi, tezligi kabi turli holatlar hisobga olinadi. So'zlashish – dialogik nutq, asosan kattalar yordamida amalga oshiriladi va u ayniqsa, tevarak-atrofnı bilish jarayonida yaxshi natijalar beradi.

Jumladan, jamoat joylarida, ko'pchilik o'rtasida nutq madaniyatiga rioya etishga e'tibor qaratiladi. Bunda bir-birining nutqini to'ldirib borish, tuzatishlar kiritish, so'rash, so'rab bilib olish dialogik nutqqa o'rgatishning usullari sanaladi.

Ma'lumki, muloqot ikki shaklda – erkin va maxsus tayyorlangan mashg'ulotlarda amalga oshiriladi. Kundalik hayot va taassurotlar asosida uyushtiriladigan muloqot erkin muloqot bo'lib, yo'l-yo'lakay o'tkazilsa-da, bola nutqning ifodali bo'lishiga yordam beradi, ularda jumalarnı grammatik jihatdan to'g'ri tuzish malakalarining paydo bo'lishiga, so'z zahirasining boyishiga olib keladi.

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

FEVRAL

ANDIJON, 2026

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ham bog‘langan nutqni rivojlantirish texnologiyasi ishlab chiqilganda tavsiya etilgan matnni hikoya qilishda voqeani kattalarning yordamisiz, mustaqil ifodalay olishga, lug‘at boyligiga, matn mazmunini bayon etishda izchillikka rioya qilishi, tilning ifoda vositalaridan foydalana olishi, nutqning ravonligi, tezligi, jumalarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuza olishi, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishi, nutq madaniyatiga rioya etishiga qaratiladi.

Shuningdek, bolalarning monologik nutqining shakllanishi ularni maktabga tayyorlashning asosiy shartlaridan biridir. Zero, bog‘langan nutq bolalarning mantiqiy tafakkurini va unga bog‘liq bo‘lgan zehni o‘tkirlash, zukkolik kabi xislatlarini ham tarkib toptiradi.

Bolalarda hikoya qilish ko‘nikmasi uning lug‘at boyligi, jumla tuzish malakasi bilan ham ahamiyatlidir. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarga muayyan mavzular bo‘yicha ertaklar, rasmlar asosida hikoya tuzish topshirig‘i ham berilishi mumkin.

Bunday topshiriq ustida ishlash orqali ularda mustaqillik, ijodiy faollik rivojlantiriladi. Masalan, “Bizning oila”, “Bahor fasli”, “Yoz – o‘tar soz”, “Qaldirg‘ochlar uchib keldi” va hokazo mavzularda hikoya tuzishni tavsiya etish bolalarni nihoyatda qiziqtiradi. Hikoya qilish bolalarning jumalarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish, tovushlarni, qo‘shimchalarni to‘g‘ri talaffuz etish, yoshiga mos darajada tasviriy vositalardan to‘g‘ri foydalana olishiga yordam berib boriladi.

Kattalarning mehnat jarayonini kuzatish, tabiatga, ishlab chiqarish korxonalariga, daryo, cho‘l, dalalarga sayohatlar asosida hikoyalar tuzishni tavsiya etish ham bolalarning bog‘langan nutqini rivojlantirishda eng qulay usullar sanaladi.

Bolalarning bog‘langan nutqini rivojlantirishda badiiy adabiyotning imkoniyatlari kattadir. Maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilari badiiy adabiyotning eng yorqin namunalari bilan har kuni tanishtirilib boriladi. Hikoyalar, rivoyatlar, ertaklar, maqollar, topishmoqlar, tez aytilishlar va qo‘shiqlar ular nutqining ifodaliligini ta‘minlab qo‘ya qolmaydi, balki so‘z zahirasini ham boyitadi, adabiy til imkoniyatlaridan bahramand qiladi.

Bolalarda bog‘langan nutqni rivojlantirish ularni savodxonlikka o‘rgatish bilan davom ettiriladi. Bu jarayon eshitganini anglab olishga ko‘nikma hosil qilish, o‘z fikrini ifodali, aniq, tushunarli, grammatik jihatdan to‘g‘ri ifodalay olish bilan bog‘liq bo‘ladi.

Bolalarning bog‘langan nutqini rivojlantirishda eng muhim vazifalar sifatida ularning lug‘atini boyitish va faollashtirish, nutqining grammatik tuzilishini, tovush madaniyatini, dialogik va monologik nutqni shakllantirish, badiiy adabiyot namunalaridan foydalanish hamda savod o‘rgatishga tayyorgarlik kabilarni kiritish mumkin. Tevarak-atrofnı o‘rganish jarayoni bola tafakkurini rivojlantirishda boshqa hech narsa bilan almashtirish mumkin bo‘lmagan hissiy rag‘batlantirishga sabab bo‘ladi. Bunday rag‘batlanish bog‘cha yoshidagi katta bolalar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Chunki, tevarak-atrofdagi predmetlar, voqeliklar asosida tug‘iladigan hissiyot bola tafakkurida rivojlanib, uning tiliga, jonli ifodaga ko‘chadi.

Shuning uchun ham bolaning tevarak-atrofdagi voqelikni bilib borishi, uning go‘zalligini, bitmas - tunganmas murakkabliklarini his etishi, ijtimoiy munosabatlar va kattalar dunyosiga kirib borishi, uning har tomonlama kamol topishi bilan birga, bog‘langan nutqining ham boyib, shakllanib borishiga olib keladi. Zero, bolalik dunyoni zavqlanib, hissiyotlarga to‘lib idrok etish, uni kashf etish bilan uyg‘undir.

Demak, bog‘langan nutqni rivojlantirish, xilma-xil va betakror dunyoni metodik tomondan qiziqarli, turli shakl va vositalardan foydalangan holda zamon talablari asosida bolalarga yetkazishni tashkil etish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu borada zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bolalarning yoshi, o‘ziga xos xususiyatlari, lug‘at boyligi, nutq

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

FEVRAL

ANDIJON, 2026

madaniyati, nutqni grammatik jihatdan to'g'ri tuza olish kabi juda ko'p talablarni hisobga olish zarurati tug'iladi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mo'minova L., Amirsaidova Sh. va boshqalar. Maxsus psixologiya. – T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2013.

2. Turg'unboyev S.F. Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarni inklyuziv ta'lim sharoitida o'qitish va tarbiyalashni tashkil etish. Pedagogik tadqiqotlar jurnali №1, Oktabr, 2025 ISSN: 3060-4923, Impact Factor – 7,212.

3. Браудо Т.Е., Бобылова М.Ю., Казакова М.В. Онтогенез речевого развития // Русский журнал детской неврологии. 2017. №1. ст. 41-46.